

AYOLLAR MILLIY LIBOSLARI – ZAMONAVIY DIZAYN TALQINIDA

Hamdamova Nozima Muqimovna
falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent.
Barotova Surayyo Baxtiyor qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi
Shoyimova Maxbuba Radjabovna
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar ,ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi va bu jarayonlarning tarixiy rivoji ushbu maqolada keng yoritib berilgan. Jamiyat turmushi iqtisodiyoti va siyosatida bo'layotgan ayrim o'zgarishlar bilan baravar kiyim shakllari ham o'zgarib boradi,unda xalqning moddiy ahvoli , kishilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari hamko'zga yaqqol tashlanadi. Maqolada O'zbekiston moda dizaynida milliy o'zlikni anglash va milliy liboslarni zamonaviy dizaynda talqin qilish jarayoni yoritiladi.

Tayanch so'zlar: Dizayn,mahorat,liboslar, milliy liboslarni,zamonaviy liboslarni, ishlab chiqarish, dizayner, soha,biznes,madaniyat,milliylik, xalq, ijodkorlik,tarix zamon.

Libos insonni tashqi muhit ta'sirlaridan himoya qiluvchi, insonning tashqi ko'rinishini o'zgartirib beruvchi, unga ko'rк bag'ishlovchi, zeb beruvchi, eng asosiysi kim ekanligini anglatib turuvchi turli xildagi matolardan tikilgan ko'yak deb tushunish mumkin.

O'zbek milliy ayollar liboslari— O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda maxoratli dizaynerlar tomonidan o'zgacha bir qadimgi milliy liboslarni zamonaviy ko'rinishdagi hozirgi zamon va tarixini uzviy bog'lab turuvchi liboslarni. Har bir mintaqaga uchun o'ziga xos farq va xususiyatlar mavjud.

"Bugun biz ulug' niyatlar bilan poydevor qo'yayotgan yangi Uyg'onish davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimizning hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi» deb, ulkan madaniy merosga boy yurtimizning ravnaqi, har tomonlama rivoji yo'lida Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi keng ko'lamda islohotlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm.O'zbek milliy libosi

Hozirda dizayn badiiy ijodning keng ommalashgan turlaridan biriga aylandi. Bunga bozor munosabatlarining rivojlanishi, kichik va o'rta biznesning yuksalishi, xalqlararo aloqalarning jadallashuvi, jamiyatning axborotlashuvi kabi omillar sabab bo'ldi. O'zbekiston hukumatining dizayn sohasiga oid qarorlari

chiqarildi. Tasviriy va amaliy san'at, dizayn va xalq hunarmandligi sohalari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ta'lim muassasalarining faoliyatini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, xalqaro ijodiy va ilmiy aloqalarni mustahkamlash, O'zbekistonda va xorijda keng ko'lamma ko'rgazmalar o'tkazish orqali milliy san'atimiz yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, konferensiya, biyennale va boshqa




anjumanlar o'tkazishga alohida urg'u berilgan.

2-rasm.Fransiada bo'lib o'tgan "O'zbek milliy liboslari namoyishi" Respublikaning muhim strategik sohasi sifatida xalqaro bozor sharoitiga mos ravishda zamonaviy dizayn va milliylik bilan ajralib turadigan sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bugungi kun vazifasidir. Libos dizaynnini rivojlanishi, avvalo, yangi matolarni paydo bo'lishiga bog'liq, ular tufayli yangi konstruksiyadagi to'plamlarni yaratish imkoniyati tug'iladi.

Mamlakatda tez suratlар bilan rivojlanib borayotgan libos dizayni san'atini chuqurroq o'rganib, kengroq yoritish, dizaynerlarning tarixga aylanib borayotgan ijodlarini keng ommaga targ'ib qilish zamon talabiga

aylandi. Sermahsul ijod qilayotgan dizaynerlar ko'p, lekin ularning dunyoqarashi, milliy an'analarga, zamonaviy san'atga bo'lgan nigohi turlichaydi. Har bir ijodkor o'z ichki kechinmalari va bilimiga tayangan holda ijod mahsulini yaratadi.

An'anaviy milliy liboslar o'ziga xos belgi, timsol sifatida ma'lum bir ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bular amaliy, utilitar, estetik, yosh, ijtimoiy-jins (turmushga chiqqan ayol libosi) va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan axloqiy funksiya, shuningdek, bayramona libos, marosimlar uchun, kasbiga bog'liq bo'lgan, diniy liboslarni ajratib ko'rsatadi. Liboslarda inson yashagan joy va zamon, uning hayoti, turmushidagi quvonchli yoxud qayg'uli kunlari aks etadi. Milliy liboslar muayyan madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi ijtimoiy belgi sifatida madaniyatlarning o'zaro ta'siri va moslashuvchanligini ta'minlaydi, va shu bilan birga, turli davrlarda turli etnik guruhlarning madaniyatlar muloqotini amalga oshiruvida vositachi bo'lib, ushbu madaniyat uchun muhim bo'lgan muayyan axborot assimiliyatsiyasini tashkil qiladi.



3-rasm. Ozbek qizlari kiyadigan milliy liboslar



4-rasm.O'zbek kelinlari milliy libosi

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Buni nafaqat kiyinishda, yurish-turishimizdan tortib muomalamizda, balki zamonaviy texnikalardan foydalana olish, mehnat samaradorligini oshirish maqsadida eng so'nggi uskunalarini ishlashiga bo'lgan ishtiyoqda sezishimiz mumkin. Zamonaviy kiyimlarda milliy an'analar bilan Yevropa uslubi qo'shilib ketgan. Milliy matolardan zamonaviy ruhdagi turli bichimlardagi ko'ylik va kostyumlar xotin-qizlar o'rtasida urf bo'lgan. Albatta, o'zbek ayollarini iffatli sharq ayoli timsolida ko'rsatadigan muhim belgilaridan biri – ularning milliy kiyimlaridir. Azalazdan milliyligimiz jozibasiga aylangan o'zbek ayollarining kiyinish madaniyati, boshlariga ro'mol o'rashlari sharq xalklariga xos yuksak ma'naviyat ifodasi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda chet ellik sayyoohlар ham egnida bizning milliy atlas va adreslarni, boshlarida o'zbekcha do'ppilarni ko'rib, ko'ngillarda g'urur tuyg'usi uyg'onadi. Atlas va adresdan tikilgan zamonaviy liboslar Yevropa podiumlarida ham jilolanib, ko'zni qamashtirgancha milliy liboslarimiz butun

dunyoga tanilmoqda va bu juda quvochli holat.

Milliyligimizni dunyoga tanitish bu juda ham mashaqqatli ish. Insandan katta mahorat ,sabr,did hamda bilim talab qiladi. Milliy matolarimiz bo'lmish atlas, xonatlas, adres, banoras, tumorcha,baxmal,shoyi, beqasam va boshqalarni dunyoga tanitish uchun qanchadan qancha dizayner – ijodkorlarimiz mashaqqat chekishgan.Tarixga aylanib borayotgan ularning ijodlariga bo'lgan e'tibor hozirgi kunda yanada yuksaklashib bormoqda.

Dunyoga mashhur dizaynerlardan Charlz va Jan-Filip Uort,Jak Duce, Koko Chanel, Elza Schiaparelli, Madlen Vionnet va boshqalar insoniyat hayotida aql bovar qilmas ijodlar qilib kelganlar.Tom Ford moda doiralarida Gucci global brendining dizayneri va mashhur filmlar uchun ko'plab liboslar yaratuvchisi sifatida tanilgan.

O'zbek mashhur dizaynerlaridan esa Shaxzoda Muhammedova,Noila Usmonova, Nigora Hoshimova, Anna Fedchenkova va boshqalar ham milliyligimizni dunyoga namoyish etganlar, milliy liboslarimizni zamonaviy talqinda namoyish qilganlar. Ular O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarib,dovrug'ini dunyolarga tanitgan insonlar qatoridan joy olib kelmoqdalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,milliy libos dizayni xuddi uning yaratuvchilari kabi yosh bo'lishiga qaramay, tobora takomillashib bormoqda. U endi an'anaviy etnik madaniyatlar qatlamlariga chuqr kirib, boshqa madaniyatlar erishgan yutuqlarni ijodiy o'zlashtirmoqda. Hamda har bir dizayner tomonidan ishlab chiqilayotgan libos bir tomonidan , o'z morfologiysi , muayyan tashkilotiga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan shakllangan "tabiiy jism" sifatida , ikkinchi tomonidan – ijtimoiy va insoniy (utilitar, madaniy,estetik)foydalilik , ahamiyat, qadriyat sifatida harakat qilmoqda. Zamonaviy dizayn madaniyatni moddiylashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, u o'zida jamiyatda yuz berayotgan turli almashinislarning teran jarayonlarini , milliy, ijtimoiy, ilmiy, badiiy singari turfa

xil olam ko'rinishlarining o'zgarishlarini aks ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Latipova Zarina Oybek qizi; Shoyimova Mahbuba Radjabovna. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TOPICAL ISSUES OF SCIENSE" <https://doi.org/10.5281/zenodo.7236434>
2. Шойимова М.Р.ИСТОРИЯ БИСЕРА И БИСЕРНЫХ УКРАШЕНИЙ. "LXXV INTERNATIONAL CORRESPONDENCE SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY" 16.03.2022 yil. C-106-108. <https://internationalconference.ru/images/PDF/2022/75/history-of-beads.pdf>
3. Khamdamova N. M. DEVELOPMENT OF STUDENT TECHNICAL ENTREPRENEURSHIP WITH THE USE OF ALTERNATIVE ENERGY SOURCES //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – T. 17. – №. 6. – C. 14374-14384.

4. Хамдамова Н. М. РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА УЧЕНИКОВ //The 2nd International scientific and practical conference "Results of modern scientific research and development"(May 2-4, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 640 p. – 2021. – C. 357.
5. Хамдамова Н. М. РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА ОБУЧАЕМЫХ НА УРОКАХ ФИЗИКИ //The 2nd International scientific and practical conference "Results of modern scientific research and development"(May 2-4, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 640 p. – 2021. – C. 361.
6. M Shoyimova 2022 — CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES, 1(4), 67–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7229240>
- 7.Rahmatullayeva U.S. o'zbek xalqining kiyinish madaniyati:an'anaviylik va zamonaviylik (falsafiy-madaniy yondawuv). Nomzodlik dessertatsiyasi. Toshkent, 2010 y.